

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA
YAKUNIY HISOBOT



TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
davlat oliy ta'lim tashkiloti

60310200 – Xalqaro munosabatlar
bakalavriat ta'lim dasturi



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60310200 – Xalqaro munosabatlar

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260035
Xulosa raqami	1100-son
Xulosa sanasi	2026-yil 15-iyun
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"Termiz davlat universiteti" davlat muassasasi
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 42-uy; guvohnoma № 889, 19.10.2006-yil
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Xalqaro munosabatlar
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60310200
Akkreditatsiya usuli	masofaviy
Ekspertlar guruhi raisi (F.I.Sh., lavozimi)	Zakirov Bekzod Xikmatovich – Toshkent shahridagi Westminster xalqaro universiteti; ekspert komissiyasi raisi

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 889 / 19.10.2006
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60310200 – Xalqaro munosabatlar
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60310200 – International Relations
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60310200 – Международные отношения
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Xalqaro munosabatlar sohasida mutaxassis
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 42-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi (muvofiq). Umumiy ma'noda ta'lim dasturini amalga oshirish uchun universitetda zarur tashkiliy-boshqaruv tizimi shakllangan va mavjud institutsional salohiyat ushbu yo'nalishni muvaffaqiyatli tashkil etish imkonini beradi. Universitetning rivojlanish strategiyasi, ichki boshqaruv mexanizmlari hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha mavjud tartib va jarayonlar dastur faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun yetarli asos yaratadi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi (muvofiq). Umumiy ma'noda, "Xalqaro munosabatlar" ta'lim dasturi belgilangan tartibda ishlab chiqilgan bo'lib, uning mazmuni davlat ta'lim standartlari (DTS), milliy malakalar ramkasi (MMR) talablariga mos keladi. Dastur 4 yil davomida 240 kredit hajmida tuzilib, bosqichma-bosqich murakkablashtirish prinsipi asosida fundamental fanlardan mutaxassislik va ixtisoslashtirilgan fanlarga o'tish izchilligi ta'minlangan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi (muvofiq). Universitetda o'quv reja va dasturlar ishlab chiqish bo'yicha rasmiy tartib o'rnatilgan bo'lib, mehnat bozori ehtiyojlari tahlil qilingan, malaka talablari asosida dastur loyihasi tuzilgan va kafedralar hamda fakultet kengashlarida muhokama qilingan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi (muvofiq). Universitetda talabalarni qabul qilish bo'yicha aniq mezonlar belgilangan bo'lib, barcha ma'lumotlar rasmiy veb-sayt, Telegram kanali va Call-center orqali abituriyentlarga ochiq tarzda yetkaziladi; qabul jarayonida video-kuzatuv, jamoatchilik nazoratlari va xorijiy til sertifikatlarining haqiqiyliigi tekshiriladi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi (muvofiq). Universitetda professor-o'qituvchilar tarkibi rasmiy attestatsiyadan o'tgan bo'lib, Yuridik fakultetida 22 nafar professor-

o'qituvchi faoliyat ko'rsatadi va ilmiy darajaga ega bo'lganlar ulushi akkreditatsiya talablariga mos keladi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi (muvofig). Universitetda ta'lim dasturini amalga oshirish uchun asosiy moddiy-texnik baza mavjud. Yuridik fakultetida to'rt o'quv xonasi jihozlangan, auditoriyalar proyektor va elektron doskalar bilan ta'minlangan, "Ilmiy tadqiqot Markazi" 2022 yildan faoliyat boshlagan va kompyuter, elektron kutubxona hamda Wi-Fi qamrovi ta'minlangan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ekspert komissiyasi xulosasida akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi jiddiy kamchiliklar aniqlanmagan.

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan kichik kamchiliklar:

- ✓ O'quv rejasida nazariy fanlar amaliy va ixtisoslashtirilgan fanlarga nisbatan ustunlik qiladi; nazariy va amaliy fanlar nisbatini muvozanatlash hamda mintaqaviy va global fanlar bilan boyitish zarur.
- ✓ O'quv natijalari va kompetensiyalar xaritasini har bir fan darajasida hujjatlashtirish, ilmiy tadqiqot metodologiyasi fanini kiritish zarur.
- ✓ Xalqaro hamkorlik (qo'shma dasturlar, talaba almashinuvi, xorijiy professorlar) va akademik resurslar (inglizcha adabiyot, xalqaro jurnal obunalari) bo'yicha imkoniyatlarni kengaytirish zarur.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ O'quv rejasini Markaziy Osiyo mintaqaviy xususiyatlari va zamonaviy global muammolarni qamrab oluvchi fanlar bilan boyitish, nazariy va amaliy fanlar nisbatini muvozanatlash hamda ilmiy tadqiqot metodologiyasi fanini kiritish tavsiya etiladi.
- ✓ Xalqaro universitetlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari, Erasmus+ va talaba almashinuv dasturlarini joriy qilish, xalqaro malakali professor-o'qituvchilarni jalb qilish tavsiya etiladi.

- ✓ Inglizcha akademik adabiyotlar va xalqaro jurnal obunalari hamda diplomatik simulyatsiya laboratoriyasini ta'minlash tavsiya etiladi.
- ✓ Bitiruvchilar bandligini kuzatish (tracer studies) va Karyera markazi hamkorligida talabalarni ish bilan ta'minlash mexanizmini mustahkamlash tavsiya etiladi.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Yakuniy xulosa "Termiz davlat universiteti" davlat muassasasining 60310200 – Xalqaro munosabatlar bakalavr ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar hamda asoslovchi materiallar tahlili asosida shakllantirildi. Baholash oltita yo'nalish (bob) va ularga tegishli mezonlar bo'yicha o'tkazildi.


O'tkazilgan tahlil natijasida ta'lim dasturi tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash, ta'lim dasturlari, o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlari bo'yicha belgilangan talablarga to'liq javob berishi aniqlandi. Barcha oltita yo'nalish va ularga tegishli mezonlar muvofiq deb baholandi.

Aniqlangan e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar akkreditatsiyaga to'sqinlik qilmaydi va ular o'quv jarayonini takomillashtirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo'yicha tavsiyalar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin.

Yuqoridagi barcha dalillarga tayangan holda, 60310200 – Xalqaro munosabatlar bakalavr ta'lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasi talablariga **muvofiq deb baholandi**.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	2026-yil 16-iyun
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	3-son
Yakuniy qaror (akkreditatsiyadan o'tdi/akkreditatsiyadan o'tmadi)	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

